

Respublikamiz florasini o'rganish va muhofaza qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2020-yil 31-yanvar kuni Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasida olimlar, yosh tadqiqotchilar, ishlab chiqarish vakillari va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari bilan o'tkazgan uchrashuvda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zR FA Botanika institutida O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi rahbar xodimlari bilan uchrashuv tashkil qilindi.

Uchrashuvda Botanika instituti olimlari tomonidan taklif etilgan loyihalarni o'rmon fondi yerlarida qo'llanilishi, bioxilma-xillikni muhofaza qilish va o'rmon xo'jaligini iqtisodiy samaradorligini oshirish, O'rmon xo'jaligi fondi yerlarida kadastr faoliyatini yuritish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ma'lumotlar, takliflar berildi. Taklif etilgan loyihalar bo'yicha O'rmon xo'jaligi xodimlari hamda Institut olimlari o'rtasida fikr almashildi.



Uchrashuv so'nggida Institut xodimlari tomonidan taklif etilgan O'zbekiston Respublikasi o'rmon fondi yaylov resurslarining elektron-raqamli va geoinformatsion bazasini yaratish (I etap: Qo'ng'irov ov-o'rmon xo'jaligi yaylovlari), Jizzax viloyati o'rmon xo'jaliklaridagi fitopatogen zamburug'larni GAT xaritalari, ma'lumotlar bazasini yaratish va kasalliklar rivojlanishini erta bosqichlarda tashxislashning molekulyar-genetik usullarini ishlab chiqish hamda o'rmon fondi yerlarida tojik kovragi (Ferula tadshikorom Pimenov) tabiiy zahiralarning raqamli xaritasini yaratish loyihalari O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi rahbariyati tomonidan yana bir bor o'rganib chiqilib, chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqish bo'yicha kelishib olindi.